

# СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 5 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 5

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 5



# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№5 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-5>

**Бош муҳаррир:**  
**Тўхтасинов Илҳом**  
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

**Главный редактор:**  
**Тухтасинов Илхом**  
д.п.н., профессор (Узбекистан)

**Заместитель главного редактора:**

**Editor in Chief:**  
**Tuhtasinov Ilhom**  
DSc. Professor (Uzbekistan)

**Deputy Chief Editor**

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умарўғли**  
ф.ф.д., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

**Бокиева Гуландом**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**  
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

**Махмудов Низомиддин**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**  
ф.ф.д., профессор (Россия)

**Жўраев Маматкул**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммаед**  
к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Мичиган университети (АҚШ)

**Умархўжаев Мухтор**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Болтабоев Ҳамидулла**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддиқова Ирода**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**  
ф.ф.д. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
масбул котиб, PhD, доцент  
(Ўзбекистон)

## РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Узбекистан)

**Якуб Умар оғли**  
д.ф.н., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Бакиева Гуландом**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Миннуллин Ким**  
д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Махмудов Низомиддин**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Керимов Исмаил**  
д.ф.н., профессор (Россия)

**Джураев Маматкул**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Куренов Рахыммаед**  
к.ф.н. (Туркменистан)

**Кристофер Джеймс Форт**  
Университет Мичигана (США)

**Умархаджаев Мухтар**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Мирзаев Ибодулло**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Балтабоев Ҳамидулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Дустмухаммедов Хуршид**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Лиходзиевский А.С.**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Сиддиқова Ирода**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Шиукашвили Тамар**  
д.ф.н. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
отв. секретарь, PhD, доцент  
(Узбекистан)

## EDITORIAL BOARD

**Bakhtiyor Nazarov**  
academician. (Uzbekistan)

**Yakub Umarogli**  
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

**Almaz Ulvi Binnatova**  
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

**Bakieva Gulandom**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Minnulin Kim**  
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

**Mahmudov Nizomiddin**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kerimov Ismail**  
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

**Juraev Mamatkul**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kurenov Rakhimmamed**  
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

**Christopher James Fort**  
University of Michigan (USA)

**Umarkhodjaev Mukhtar**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Mirzaev Ibodulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Boltaboev Hamidulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Dustmuhammedov Khurshid**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Lixodzievsky A.S.**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Siddiqova Iroda**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Shiukashvili Tamar**  
Doc. of philol. scien. (Georgia)

**Turobov Bekpulat**  
PhD Ass. prof. Senior Secretary  
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

<b>1. Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna</b> O‘ZBEK TILI AUDIOKORPUSI UCHUN PRAATNING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI.....	5
<b>2. Kuchkorov Khoshimjon Khasanzoda</b> SOME CONSIDERATIONS ON THE UZBEK TRANSLATION OF THE WORK OF THE ALCHEMIST (ON THE EXAMPLE OF THE TRANSLATION OF AKHMAD OTABOY).....	11
<b>3. Ergashev Mirsaid Baxtiyor o‘g‘li</b> SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT OF “LOVE-MUHABBAT” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	18
<b>4. Eshboltayev Bobur Jo‘rayevich</b> BOLALAR REKLAMA MATNLARINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....	23
<b>5. Qurbonova E‘zoza</b> HUQUQSHUNOSLIKKA DOIR TERMINLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA ULARDA POLIFUNKSIONALLIK MASALASI.....	27
<b>6. Abduxamidova Dilafruz Abduxabirovna</b> TILNING TAFAKKURGA TAFAKKURNING TILGA TA‘SIRI.....	33
<b>7. Usmonova Zarina Habibovna</b> THE UNIQUE ASPECTS OF TRANSLATION IN ENGLISH SCIENCE FICTION.....	38
<b>8. Valieva Noiba Abbasxonovna</b> TIL VA JAMIYAT O‘RTASIDAGI UZVIY BOG‘LIQLIK XX ASR DOLZARB MASALASI SIFATIDA.....	43
<b>9. Dilorom Ikramovna Hakimova</b> “NAFS” KONSEPTINING LINGVOPRAGMATIK TAVSIFI VA TASNIFI.....	49
<b>10. Xasanova Shaxzoda</b> FE‘L FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASI.....	54
<b>11. Ойбек Бектемирович Абдимўминов</b> БМТ ИСЛОҲОТЛАРИ: СИЁСИЙ ҚАРАШЛАР, НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА АМАЛИЙ ТАШАББУСЛАР.....	60
<b>12. Хасанова Феруза Мирзабековна, Аҳмедов Нодирбек Алиевич</b> ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА С КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА.....	67
<b>13. Усманова Салиха Юлдашевна, Мирзаева Шахло Ризаевна</b> ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ СОСТАВА И СТРОЕНИЯ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО СЛОВА ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП.....	74
<b>14. Saidvaliyev Farrukh Saidakramovich, Subkhanova Aziza Khabibulla kizi</b> ROLE OF ANTIDEPRESSANTS IN REDUCING THE FREQUENCY AND DURATION OF MIGRAIN HEADACHES.....	80
<b>15. Ишанкулова Нилуфар Ташкентовна</b> HEMIS TILI FEЬЛЛАРИНИНГ АКЦИОНАЛ ТАСНИФИ.....	85
<b>16. Jabborova Dilafruz Ismatullo kizi</b> USING DIGITAL TECHNOLOGIES TO ENHANCE FINANCE STUDENTS’ WRITING COMPETENCE.....	91
<b>17. Jo‘raqulova Mushtariy</b> O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	94
<b>18. Maftuna Kamarova Umar qizi</b> KOREYS TILI O‘QITUVCHILARINING O‘QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA FLIPPED LEARNING TEXNOLOGIYASINING O‘RNI.....	99


<b>19. Shoxida Ulugova Shoxruxovna</b> LISONIY OBRAZ YARATISHDA DISKURSNING KOGNITIV-SEMANTIK VAZIFASI.....	104
<b>20. Рашидова Камила Ахмаджонова</b> ЗАРОЖДЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЯПОНИИ.....	109
<b>21. Тошбекова Дилором Исмоиловна, Халимова Нодири Бахронкуловна</b> РУССКАЯ ФРАЗЕОЛОГИЯ И КУЛЬТУРНЫЙ КОНТЕКСТ: АНАЛИЗ УСТОЙЧИВЫХ ВЫРАЖЕНИЙ, ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК, ИХ ПРОИСХОЖДЕНИЕ, РАЗВИТИЕ И РОЛЬ В СОВРЕМЕННОЙ КОММУНИКАЦИИ.....	116
<b>22. Bakhronova Dilrabo Keldiyorovna, Umirova Dilnoza</b> PRAGMATIC FEATURES OF PHRASES IN IAN MCEWAN’S NOVELS.....	120
<b>23. Ikramova Kamola Shuhratovna</b> THE IMPORTANCE OF MYTHOLOGIES, ARCHETYPES, AND MYTHIC UNITS IN THE CREATION OF A FEMALE IMAGE IN NOVELS “PRIDE AND PREJUDICE” BY JANE AUSTEN AND “O’TGAN KUNLAR” BY ABDULLAH QODIRIY.....	124
<b>24. Buranova Madina Uktamovna, Ruziyeva Umida Abryukul kizi</b> SEMANTIC AND PRAGMATIC ANALYSIS OF ANTHROPOCENTRIC IDIOMS IN CONTEMPORARY ENGLISH LITERATURE.....	129
<b>25. Ergashova Baxora Sayfillo qizi</b> ITALYAN XALQ ERTAKLARINING TARIXIY TARAQQIYOTI.....	136
<b>26. Muhtarova Nigina</b> THE USE OF AUTHENTIC VIDEO MATERIALS TO IMPROVE LANGUAGE LEARNING THROUGH COMMUNICATIVE TEACHING.....	141
<b>27. Bayonkhanova Iroda Furkatovna</b> KOREYS TILINI O’RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	151
<b>28. Ergashev Mirsaid Baxtiyor o’g’li</b> SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT OF “LOVE-MUHABBAT” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	157
<b>29. Рашидова Камила Ахмаджонова</b> ЗАРОЖДЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЯПОНИИ.....	162
<b>30. Ikromova Nigina Oybekovna</b> THE EFFECT OF COGNITIVE LOAD ON THE TRANSLATOR: THE ROLE OF PSYCHOLINGUISTIC PROCESSES IN TEXT TRANSLATION.....	169
<b>31. Эргашева Дилноза Тохировна</b> АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА.....	175
<b>32. Nasiba Azizova</b> THE CONCEPT OF LINGUISTIC PERSONALITY IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI.....	180



**Ergashova Baxora Sayfillo qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
ergashova.baxoram@gmail.com

## ITALYAN XALQ ERTAKLARINING TARIXIY TARAQQIYOTI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.15078421>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada italyan xalq ertaklarining o'ziga xos jihatlari, ularda aks ettiriladigan asosiy g'oyalar, ertaklarning og'zaki nutqdan yozma manbalarga ko'chishlari haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi. Bundan tashqari davrlar kesimida xalq og'zaki ijodining ajralmas qismi bo'lgan ertaklarning taraqqiy etish hodisasi, ularning jamiyatdagi axloq qoidalariga ta'siri va davrlar kesimida alohida g'oyalarni ifodalashiga alohida to'xtalib o'tiladi. Giambattista Basile, Karlo Kollodi va Italo Kalvino kabi ertaknavislar ijodiga urg'u beriladi.

**Kalit so'zlar:** folklor, ertaklar, ertaknavis, italyan xalq ertaklari, Pentameron, Pinokkio obrazi, Telefonda aytilgan ertaklar.

**Эргашова Бахора Сайфиллоевна**

исследователь Узбекского государственного  
университета мировых языков  
ergashova.baxoram@gmail.com

## ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИТАЛЬЯНСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК

### АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно рассматриваются особенности итальянских народных сказок, основные идеи, отраженные в них, а также процесс перехода сказок из устной традиции в письменные источники. Также особое внимание уделено развитию сказок как неотъемлемой части народного устного творчества, их влиянию на моральные нормы общества и выражению отдельных идей в разные исторические периоды. Подчеркивается творчество таких сказочников, как Джамбаттиста Базиле, Карло Коллоди и Итало Кальвино.

**Ключевые слова:** фольклор, сказки, сказочники, итальянские народные сказки, "Пентамерон", образ Пиноккио, Сказки по телефону.

**Ergashova Bakhora Sayfillo kizi**

Researcher at Uzbekistan State University of World Languages  
ergashova.baxoram@gmail.com

## HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ITALIAN FOLK TALES

ANNOTATION

This article provides a detailed examination of the characteristics of Italian folk tales, the main ideas reflected in them, and the process of transitioning these tales from oral tradition to written sources. Special attention is given to the development of fairy tales as an integral part of oral folk creativity, their influence on the moral norms of society, and the expression of specific ideas across different historical periods. The works of fairy tale writers such as Giambattista Basile, Carlo Collodi, and Italo Calvino are emphasized.

**Keywords:** folklore, fairy tales, fairy tale writers, Italian folk tales, "Pentamerone," the image of Pinocchio, fairy tales told on the phone.

KIRISH

Oʻrta asrlarda, Yevropada ritsarlar, ajdarlar, sehrarlar va jodugarlar haqidagi hikoyalar qishloqlarda farzandlarni tarbiyalash va vaqtni mazmunli oʻtkazish maqsadida soʻzlab berilar edi. Qirol Artur va Aylana stol ritsarlari haqidagi afsonalar Yevropa xalqlari madaniyatining ajralmas qismiga aylandi. Italiyada esa Dante Alighieri va Jovanni Bokkachchoning asarlari xalq eʼtiqodlari va afsonalariga ishoralarni oʻz ichiga olgan va ularning qarashlariga asoslangan. (masalan, Ilohiy komediyadagi jodugarlar va sehr-jodu haqidagi bitiklar). Shu sababli, bu asarlar oddiy xalq tomonidan sevib oʻqilib, ular asosida teatr tomoshalari tashkillashtirilgan. Italiya romanshunoslaridan Alessandro Manzoni maʼlum bir xalqni tushunish va tasvirlash uchun xalq anʼanalarini vosita sifatida koʻrsatgan. Oʻzining mashhur romani I Promessi Sposi (Juftlarning ahdlashuvi) da Manzoni maqollar, urf-odatlar va xalq eʼtiqodlarini realistik va tarixiy kontekstni mustahkamlash uchun keltirib oʻtgan. Verizm davrida (Giovanni Verga yetakchiligidagi adabiy oqim) folklor xalq qatlamlarining hayotini tasvirlashda vosita boʻlib xizmat qilgan va kundalik kurashlar hamda marosimlarni aks ettirgan. Masalan: Verganing hikoyalari maqollar, xurofotlar va Sitsiliya marosimlariga oid koʻplab badiiyatlarni oʻz ichiga oladi. Ertak motivlarining dastlabki namunalari taʼlimiy-didaktik xarakterda boʻlib, keyinchalik ijtimoiy-maishiy ahamiyat kasb etgan. Har bir motiv esa, hayoliy va hayotiy uydurmalariga asoslangan. Ertak termini Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani ogʻzaki hikoya qilish maʼnosini bildiradi. M. Gorkiy ertaklar asosini fantastika tashkil qilishini quyidagicha ifodalaydi: “ertaklarda hammadan ham “uydirma” hodisalarni avvaldan koʻra biluvchi tafakkurimizning ajoyib xususiyati ibratlidir. Ertakchilar hayoliy uchar gilamlarni aeroplanlar ixtiro qilinmasdan necha asrlar ilgari bilgan edi...”. Ertaklardagi qushlar-u, hayvonlar ham xuddi odamlardek gapirishlari, bir-birlarini tushunib, muomala qilishlari, nimalarnidir talashib-tortishgani-yu, qanaqadir arzimas sabablar uchun jazolanishlari uchun ham bizga qiziqarli boʻlib koʻrinadi. Masalan, tabiatdagi tulki aslida ayyor boʻlmasligi mumkin, ammo u ertaklarda oʻta ayyor, hiyla-nayranglar bilan ish bitiradigan kishilarga taqlid qilib keladi. Quyon esa hamisha qoʻrqqoq va chaqqon, ayiq yalqov, uyquchi, tepsa-tebranmas, ilon zaharli, hammaga, atrofidagi jamiki mavjudotlarga faqat yovuzlik ulashuvchi, sher esa botir, qoʻrmas, barchani ustidan hukmronlik oʻrnatadigan, hayvonlar qiroli hisoblansa, it vafodor, sodiq, kishilarga doʻst sifatida tavsiflanadi. Ertaklar hayvonlar toʻgʻrisida boʻlsa ham, ularning barchasi insonlarga, ularning xarakterlariga ishora qilib keladi. Ertaklarning paydo boʻlishida qadimiy urf-odat marosimlar, miflar hal qiluvchi rol oʻynagan. Fantastika ertak mezoni, uning joni va qonidir. Eʼtibor beradigan boʻlsak, ertaklarning boshlanishi va tugallanishi deyarli bir-biriga oʻxshash boʻladi. “bir bor ekan, bir yoʻq ekan yoki qadim-qadim zamonda”, deb boshlansa, “murod-maqsadlariga yetishibdi, baxtli umr kechirishibdi” deya tugallanadi. Ertaklar tuzilishi va mazmuniga koʻra boʻlinishini birinchilardan boʻlib, Ante Arne boshlab beradi va quyidagicha tasniflaydi:

1. Hayvonlar haqidagi ertaklar
2. Sehrli ertaklar
3. Anekdotlar

Mazkur tadqiqot ishimizda Oʻrta yer dengizi madaniyati oʻchogʻi hisoblangan Italiyaning xalq ogʻzaki ijodiga nazar solamiz, yaʼni ertaklarni tadqiq qilamiz.

ASOSIY QISM

Italyan xalq ertaklari, mamlakat madaniy merosining ajralmas qismi sifatida, asrlar davomida shakl va mazmun jihatidan sezilarli ravishda rivojlandi. Ushbu xalq ertaklari, og'zaki an'analarga asoslangan bo'lib, nafaqat avlodlarni tarbiya qilish, balki Italiyadagi madaniy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarni aks ettirish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Birinchi marta og'zaki hikoyalar sifatida qishloq jamoalarida almashinilgan, so'ngra mashhur yozuvchilar, masalan, Giambattista Basile, Carlo Collodi va Italo Calvino asarlari orqali shakllangan, italyan ertaklari boy ijodkorlik, axloqiy o'gitlar va inson tabiatini tushunishga oid fikrlarni o'z ichiga oladi. Bu ertaklar, asosan, oddiy xalq uchun mo'ljallangan bo'lib, dastlabki mavzular, ko'pincha, adolat, fazilat va yomonlikni jazolash bilan bog'liq edi. Ertaklar axloqiy va ilohiy qonunlarga rioya qilish zarurligini o'rgatib, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qarama-qarshilikka urg'u bergan. Ushbu matnlarda "yomon" doimo jazolangan, "adolatli" yoki "yaxshi" esa mukofot olgan va bu dunyo, insonning axloqiy qadriyatiga qarab uning taqdirini belgilagan.

Italyan xalq ertaklarining ildizlari og'zaki ko'rinishda yaratilgan manbalarga borib taqaladi. O'rta asrlarda asosan dehqonlar va oddiy odamlar hayvonlar obrazi orqali odamlarga xos xususiyatlarni ifodalovchi ertaklar so'zlashar edilar, ular odatda bolalarga axloqiy saboqlarni berish va kattalarni qilgan ishlaridan xulosa chiqarishga undash uchun so'zlab berilardi. Ushbu hikoyalar yozma shaklga ega bo'lmasdan, avloddan-avlodga qo'shiqlar, dostonlar ko'rinishida og'zaki tarzda o'tib borardi.

Italyan ertaklarining "otasi" sifatida nom olgan birinchi muallif shubhasiz Giambattista Basile bo'lib, u 1634-yilda 50 ertakni o'zida jamlagan "Lo cunto de li cunti" (Hikoyalar haqida hikoya) asarini nashr etdi, bu asar "Pentamerone" deb tanilgan bo'lib neapol shevasida yozilgan. Tuzilish jihatdan asar Bokachchoning "Dekameron" asariga o'xshash, ya'ni besh kun davomida o'n nafar hikoyanavis tomonidan aytilgan ertaklarni jamlagan. Ushbu asar ertakshunoslik tarixida eng muhim asarlardan biri bo'lib, o'zining lingvistik boyligi, antropologik va madaniy qadriyatlarni izohli yoritib berishi bilan ajralib turadi. Basile xalq ertaklarini to'plab, ularga katta badiiy o'ziga xoslik qo'shgan va sarguzashtlarga asoslangan g'ayrioddiy, sirli va ulug'vor xususiyatlar bilan to'la ertaklar yaratgan. Basile ertaklari sehr-jodu, yovuz maxluqlar, sehrgarlar va gapiruvchi hayvonlar kabi fantastik komponentlarga ega edi. Ammo uning yangiliklari faqat fantastik elementlarni qo'shishdagina emas, balki ijtimoiy tanqidni ham o'z hikoyalariga kiritib, ko'pincha aristokratiya va oddiy odamlar o'rtasidagi qarama-qarshilikni tasvirlagan va ayollarni bosh qahramon sifatida ko'p o'rinlarda ko'rsatgan. "Pentamerone" (Beshlik) ertaklari bolalar uchun oddiy ko'ngilochar hikoyalar emas, balki insoniyat hayot tarzini tahlil qilish uchun muhim vosita edi. Eng mashhur ertaklardan biri, birinchi kunning oltinchi ertagi bo'lib, "La gatta Cenerentola" (Mushuk va Sindrella) nomi bilan tanilgan, bu mashhur "Sindrella" ertagining tanilgan versiyasidir. Bu xalq ertagi qadimdan turli qit'alardan kelgan yuzlab versiyalar bilan meros sifatida qolgan. Aynan Basile tomonidan yozilgan versiya bir necha o'n yillardan so'ng, Sharl Perrotning "Sindrella" va XIX asrda aka-uka Grimlarning "Aschenputtel" kabi ertaklarida qayta yaratildi.

XIX asrda, Romantizmning paydo bo'lishi va burjua sinfini mustahkamlash bilan, italyan ertaklari omma orasida yanada keng tarqaldi. Karlo Kollodining "Pinokkioning sarguzashtlari" (1883) asari ertaklar janrida muhim bir burilish nuqtasini belgilaydi. Bu asar, o'zining sodda tili va yuksak axloqiy saboqlari bilan "ertak" atamasiga to'liq mos kelib, Pinokkio obrazi orqali yosh o'quvchilarni tarbiyalashga xizmat qilgan. Pinokkio haqiqiy bola bo'lishni orzu qiladigan bir yog'och qo'g'irchoq bo'lib, uning hayoti qiziqarli sarguzashtlar va sinovlar bilan to'la. Kollodi nafaqat rostgo'ylik, mas'uliyat va oilaviy muhabbat kabi ijobiy qadriyatlarni ta'kidlaydi, balki aldovlar va xatarlardan iborat qorong'u tomonni ham kiritadi. Kollodi, burjua axloqini, shuningdek, odob va intizomni insoniyat erishishi zarur ekanligini ta'kidlaydi. Pinokkio, aslida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni o'rganishi va o'zining egoistik qiyinchiliklaridan voz kechib, "haqiqiy bola" bo'lishi kerak edi. Uning ertaklari, italyan bolalar adabiyotida ta'lim beruvchi va shu bilan birga murakkab bo'lgan bir maktabdir. Keyinchalik bu asar rus yozuvchisi L.Tolstoytomonidan "Buratino va sehrli kalit" nomi ostida qayta yaraladi. XIX asr italyan ertaklarining ommalashishiga hissa qo'shgan yana bir ijodkor J.Pitre hisoblanadi, u

Sitsiliya folklorini o'rgangan eng buyuk olimlardan biridir. Uning asosiy asari "Sitsiliya xalq ertaklari, afsonalari va hikoyalari" deb nomlangan bo'lib, Sitsiliya xalq an'analari bo'yicha eng to'liq

to‘plamlardan biridir. Pitre italyan folklorini tizimlashtirish va qadrlashga ulkan hissa qo‘shgan, afsonalardan tortib xalq qo‘shiqlarigacha bo‘lgan hikoyalarni yig‘ib, manba sifatida saqlagan. XX asrda, italyan ertaklari o‘z taraqqiyotida yuqori natijalarga chiqqan boshladi, ya‘ni jahon ertaknavislari qatorida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ertaknavis yozuvchilar Italo Kalvino, J.Rodari, D.Buzzattilar soha rivojiga sezilarli darajada hissa qo‘shishdi. Italo Kalvino ertaklar janrini yangi, innovatsion va eksperimental bir nuqtai nazardan qayta ishladi. "Italyan ertaklari" (Fiabe italiane, 1956) asari ertaklar janrining eng muhim to‘plamlaridan biri bo‘lib, Kalvino xalq ertaklarini qayta tiklab, zamonaviy o‘quvchilarga mos ravishda taqdim etdi. Kalvino o‘zining to‘plamida faqatgina axloqiy saboqlar berib qolmay, balki hikoya strukturasi va inson xulq-atvorini boshqaruvchi psixologik mexanizmlarni ham o‘rganadi. Masalan, uning “Yashil dengiz odami” nomli ertagi Italiyaning geografik joylashuvi va xalq etnografiyasiga asoslanib yozilgan bo‘lib, unda qahramonlarning dengiz bo‘ylab kemalar ustida qilgan sarguzashtlari yoritiladi hamda mardlik, to‘g‘riso‘zlik, jasorat kabi hislatlar bosh g‘oya sifatida ulug‘lanadi. XX asrda yana ko‘plab boshqa mualliflar xalq ertaklarini qog‘ozga tushirishni, ularning turli versiyalarini yaratishni davom ettirdilar. Ular orasida J.Rodari bolalar adabiyotida o‘lmas meros yaratgan adib sifatida tanilgan. Uning "Telefonda aytilgan ertaklar" (1962) kitobi italyan bolalarining eng sevgan asarlaridan biridir, unda ertaklar kulgili ammo mulohazali bir uslubda hikoya qilinadi. Rodari o‘zining ijodida o‘ziga xos xayolot va fantaziyalarni ilgari surib, bolalarni hayotga nisbatan ijodiy va ochiq qarashga undagan. Rodarining yana bir mashhur asari "Grammatica della fantasia" (Xayolot grammatikasi) bo‘lib, unda yozish va o‘ylashni qanday qilib xayolot va tasavvurlar orqali o‘rganish mumkinligi haqida so‘z boradi. Uning asarlari ko‘pincha bolalar uchun ilmiy va didaktik qiymatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Rodari nafaqat yozuvchi, balki pedagog sifatida ham tanilgan. U bolalar ta‘limida ijodiy yondoshuvlarni ilgari surgan hamda bu jarayonda adabiyotning rolini oshirishga va uning ilmiy asoslarini ishlab chiqishga intilgan. J.Rodari ertaklardan tashqari bolalar uchun qiziqarli “filastrocche” (quvnoq she‘rlar) ham yozgan. Bu she‘rlar hazilomuz yozilgan bo‘lsa-da, barchasi chuqur ma‘noga ega. Masalan o‘zining “Speranza” (umid) nomli she‘rida sodda leksikadan foydalanadi:

<p>Se io avessi una botteguccia fatta di una sola stanza vorrei mettermi a vendere sai cosa? La speranza. "Speranza a buon mercato!" Per un soldo ne darei ad un solo cliente quanto basta per sei. E alla povera gente che non ha da campare darei tutta la mia speranza senza fargliela pagare.</p>	<p>Gar bo‘lganda bitta do‘koncham, Mayli faqat bitta xonali, Bilasanmi nima sotardim, “Umid” sotardim, oddiy, chiroyli. Juda arzon bo‘lardi umid, Berar edim bitta chaqaga. Bir mijozning olgani axir, Yetar edi oltita jonga. Sotvolmoqqa puli bo‘lmagan, Nochorlarga tekin tutardim. Hech imkonim topmasam agar, O‘z umidim tortiq qilardim.</p>
---	--

Guvohi bo‘lganimizdek, mazkur to‘rtliklarda yuksak falsafiy ma‘no hamda insoniylik tushunchasi yotibdi. Hozirda J.Rodarining ijodi ko‘plab o‘zbek tadqiqotchilari tomonidan ham o‘rganilmoqda va ertaklari italyan tilidan o‘zbek tiliga bevosita tarjima qilinmoqda. Bundan tashqari, italyan xalq ertaklarini geografik, etnik, stilistik, struktur tahlil qilish maqsadida ko‘plab tadqiqotchilar ilmiy ish

ustida ishlashgan. Ulardan biri lingvist va adabiy tanqidchi Maria Korti hisoblanadi. U xalq ertaklarini o'rgangan yetuk olim bo'lib, Italiyaning xalq an'analari kontekstida ertaklar va miflarning tuzilishi hamda funksiyasini tahlil qilgan. Uning nazariy yondoshuvi hikoya va folklor sohasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning "Storia della lingua e storia dei testi" (Til va mantlar tarixi) nomli ilmiy asarida folklor matnlarining etnik va metodologik muammolari o'rganilgan.

Bugungi kunda italyan ertaklari rivojlanishda davom etmoqda. Texnologiya va zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ta'siri ertaklarni taqdim etish va qabul qilish usulini o'zgartirdi. Kitoblar, animatsiyalar, sarguzasht filmlar— bularning barchasi italyan ertaklarining hayotiyligini davom ettiradi, lekin ular yangi til va zamonaviy jamiyatga moslashtirilgan. Bu ertaklarda keltirilgan axloqiy qarashlar o'zgarmagan bo'lib, yosh kitobxonlarga jamiyatning qarama-qarshiliklarini va imkoniyatlarini ko'rsatishda davom etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ёўлдошев Б., Қурбонов Т. Бадий асар тили ва услуби масалалари (услубий қўлланма). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2007.
2. М.Ҳо'раев, Ҳ.Ешонқулов. Folklorshunoslikka kirish. – Т.: Barkamol fayz media, 2017.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -Т.: "Mumtoz O'z", 2010.
4. Виноградов В.С. Перевод: Общие и лексические вопросы. Учебное пособие. - М.Книжный дом "Университет". 2006.
5. Giuseppe Pittano, Dizionario dei modi di dire, Roma, Alma Edizione, 2015
6. "Claudio Manella, Cesara Pallante "Guida ai verbi Italiani". Progetto Lingua Edizioni. Firenze, Italia 2006
7. Stefano Ondelli, L'Italiano delle traduzioni. Alma Edizione, Roma- 2014.
8. Marco Dominici 10 racconti Edilingua Bellini, B. Cremonesi I come Italia - Nuova Edizione Libro per lo studente ELI. La Spiga Edizioni – 2011
9. Mimma F., G.Tomassini; Spazio Italia 2. B1, Loescher Editore, Torino, 2016
10. Orlandino E., Espresso ragazzi 2, Alma Edizione, Roma, 2016

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 5 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 5

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000